“Autosanoat Agro Lizing” MChJning
2026-yil “12” avgustdagi 38 i/k-sonli
buyrug‘iga 2 - ilova

“Autosanoat Agro Lizing” MChJda ishlovchi xodimlarni rotatsiya qilish tartibi to‘g‘risida
NIZOM

TOShKYENT 2026 yil

1-Bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom "Autosanoat Agro Lizing" MChJda rotatsiya qilish tartibini belgilaydi.

Bunda, markaziy apparat xodimlarini tarkibly tuzilmalararo rotatsiya qilish;
Markaziy apparat xodimlarini filiallarga rotatsiya qilish;

Filiallar xodimlarini markaziy apparatga rotatsiya qilish;

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

rotatsiya - xodimini egallab turgan lavozimidan teng bo'lgan boshqa lavozimga o'tkazish;

majburiy rotatsiya - manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida xodimni egallab turgan lavozimdan teng bo'lgan boshqa lavozimga majburiy ravishda o'tkazish;

teng lavozim - lavozimlarning guruhlari, toifalari, tatbiq etiladigan malaka darajalari hamda lavozim razryadi bo'yicha teng bo'lgan lavozimlar;

rejali tartibda rotatsiya qilish - "Autosanoat Agro Lizing" MChJ tomonidan xodimni egallab turgan lavozimidan boshqa teng lavozimga o'z roziligi bilan tasdiqlangan reja asosida o'tkazish;

rejadan tashqari tartibda rotatsiya qilish - "Autosanoat Agro Lizing" MChJ tomonidan muayyan lavozimda bo'lish muddatidan qat'iy nazar, xodimni rejadan tashqari tartibda o'z roziligi bilan teng lavozimga o'tkazish.

3. Xodimni rotatsiya qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: xodimning shaxsiy va kasbga oid sifatlari, shuningdek, boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish;

"Autosanoat Agro Lizing" MChJ faoliyatining samaradorligini oshirish, filiallarni jadal va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlash;

rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish, xodimlarning salohiyati va tajribasidan oqilona foydalanish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish.

4. Quyidagi xodimlar rotatsiya qilinmaydi:

tayyorlash, qayta tayyorlashdan va malaka oshirishdan o'tayotgan; homilador ayollar, shuningdek, uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollar;

tibbiy xulosaga asosan o'zlarining yoki ular bilan birga yashovchi oila a'zolari sog'lig'ining holati rotatsiya o'tkazilayotgan lavozimi bo'yicha xizmat majburiyatlarini amalga oshirish imkoniyatini bermaydiganlar;

pensiya yoshiga yetishiga uch yil qolganlar.

5. Xodimlar va ish yuritish bo'yicha bosh mutaxassisning rotatsiyasini amalga oshirish masalasi bo'yicha "Autosanoat Agro Lizing" MChJning bosh direktori mas'ul hisoblanadi.

6. Xodimlarni rotatsiya qilish majburiy, rejali va rejadan tashqari tartibda amalga oshiriladi.

7. Xodimni majburiy rotatsiya qilish shartlari va muddatlari uning mehnat shartnomasida nazarda tutiladi.

2-BOB. Xodimlarni majburiy ravishda rotatsiya qilish tartibi

8. Majburiy ravishda rotatsiya qilinishi lozim bo'lgan xodimlarning ro'yxati Xodimlar va ish yuritish bo'yicha bosh mutaxassis tomonidan

shakllantiriladi va Jamiyat rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

9. Ushbu Nizomning 4-bandida ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lganda xodim majburiy ravishda rotatsiya qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

10. Xodimlarni majburiy ravishda rotatsiya qilish “Autosanoat Agro Lizing” MChJ tomonidan amalga oshiriladi.

11. Majburiy ravishda rotatsiya qilish tartibidagi tayinlovlar lavozimni egallagan kundan boshlab har besh yilda amalga oshiriladi, bunda qonunchilikka yoki ichki normativ hujjatlarga muvofiq boshqa muddatlar belgilanishi mumkin.

12. Quyidagi holatlarda ham ushbu Nizomning 11-bandida ko‘rsatilgan muddat tatbiq etiladi:

Jamiyat yoki tizim korxonasi qayta tashkil etilishi;

Jamiyat yoki tizim korxonasi tuzilmasiga o‘zgartirish kiritilishi;

lavozimining funksional vazifalari, javobgarlik xususiyati yoki nomlanishiga o‘zgartirish kiritilishi.

13. “Autosanoat Agro Lizing” MChJ xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassis majburiy ravishda rotatsiya qilinishi lozim bo‘lgan xodimlarni monitoringini olib boradi.

14. Har yili majburiy tartibda rotatsiya qilinishi kerak bo‘lgan xodimlarning rotatsiya qilish muddatiga **kamida uch oy qolganda** Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat xizmatiga kelishish uchun kiritadi.

15. Majburiy ravishda rotatsiya qilish rotatsiya muddati yetib kelgandan so‘ng **bir oy ichida** amalga oshiriladi.

3-BOB. Rejali va rejadan tashqari tartibda rotatsiya qilish

16. Ushbu Nizomning 3-bandida keltirilgan maqsadlarni ko‘zlagan holda, “Autosanoat Agro Lizing” MChJ boshqaruv va mutaxassislar guruhi lavozimlaridagi xodimlarni rejali va rejadan tashqari tartibda ularning roziligi bilan rotatsiya qilish huquqiga ega.

17. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat xizmati bilan birgalikda korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi "yuqori" bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini tasdiqlaydi hamda ushbu ro‘yxatni muntazam ravishda yangilab borish bo‘yicha zarur choralar ko‘radi.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi "yuqori" bo‘lgan lavozimlarda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar “Autosanoat Agro Lizing” MChJ tomonidan rejali tartibda rotatsiya qilinishi mumkin.

19. Rejali va rejadan tashqari tartibda rotatsiya qilish bo‘yicha qaror “Autosanoat Agro Lizing” MChJ rahbariyati tomonidan qabul qilinadi. Bunda, rejali tartibda rotatsiya qilinishi ko‘zda tutilgan xodim egallab turgan lavozimda kamida uch yil faoliyat yuritgan bo‘lishi shart.

20. Xodimni rejadan tashqari tartibda rotatsiya qilish uchun quyidagilar asos bo‘lishi mumkin:

xodimning mehnatidan oqilona foydalanish zaruriyati;

xodimning shaxsiy va ishchanlik fazilatlarini rivojlantirish, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirish zaruriyati, ularning turli soha va yo‘nalishlarda bilim va tajribasini oshirish;

xodimning yangi mutaxassislik bo‘yicha tayyorgarlik yoki qayta

tayyorgarlikdan o‘tganligi;

tashkiliy-shtat tadbirlari o‘tkazilishi;

manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish; xodimning sog‘lig‘i o‘zi ishlab turgan lavozimda ishlash imkonini bermaydigan darajada o‘zgarganligi;

xodimga nisbatan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi xulosasi;

xodimning shaxsiy tashabbusi.

Xodimlarni rejadan tashqari tartibda rotatsiya qilish Qonunchilikda kelishilgan holda amalga oshirilishi belgilangan bo‘lsa shu tartibga amal qilinadi.

21. Rotatsiya xodim o‘tadigan lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga javob berishi sharti bilan amalga oshiriladi.

22. Xodim rotatsiya joyi bo‘yicha belgilangan lavozim malaka talablriga mos kelmagan yoki mazkur Nizom talablari bajarilmagan taqdirda, “Autosanoat Agro Lizing” MChJ xodimni rotatsiya qilish masalasini ko‘rib chiqishni rad etishi mumkin.

23. Xodimni rejali tartibda rotatsiya qilish belgilangan muddat yetib kelgandan so‘ng amalga oshiriladi. Bunda, “Autosanoat Agro Lizing” MChJ kamida bir oy oldin xodimni rotatsiya qilish bo‘yicha xabardor qilishi talab etiladi.

Rotatsiya muddati yetib kelgan taqdirda, xodim o‘tkazilishi kutilayotgan lavozim vakant bo‘lmagan taqdirda, mazkur lavozim vakant bo‘lgunga qadar xodim egallab turgan lavozimda faoliyatini davom ettirishi mumkin.

24. Xodimni rotatsiya qilish rejalari “Autosanoat Agro Lizing” MChJ Xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassis tomonidan yuritiladi.

4-BOB. Xodimlarning rotatsiyasiga oid huquqiy va ijtimoiy kafolatlar

25. Rotatsiya asosida boshqa lavozimga tayinlangan xodimlarning samarali faoliyati uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni egallashi maqsadida “Autosanoat Agro Lizing” MChJ tomonidan qayta tayyorlash kurslari tashkil etiladi.

26. Xodim rotatsiya to‘g‘risidagi qarordan norozi bo‘lgan taqdirda yuqori turuvchi organlarga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.

27. Xodimlarning lavozim maoshi yoki ijtimoiy kafolatlari rotatsiya qilinadigan xodim lavozimidan past bo‘lgan lavozimga rotatsiyani amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

28. Rotatsiya asosida xodimlarni boshqa korxonalarga yuboriladigan taqdirda “Autosanoat Agro Lizing” MChJ tomonidan:

xodimning boshqa qo‘shimcha xarajatlari “Autosanoat Agro Lizing” MChJ ruxsati bilan qonunchilik hujjatlari, jamoa shartnomalari, kelishuvlari yoki mehnat shartnomalarida ko‘rsatilgan tartibda qoplanishi mumkin.

5-BOB. Yakunlovchi qoidalar

29. Rotatsiya tartibida boshqa lavozimga tayinlangan xodimning avvalgi lavozimiga vaqtincha xizmat safariga yuborishga yo‘l qo‘yilmaydi.

30. Xodimning rotatsiyasiga oid ushbu Nizomda nazarda tutilmagan masalalar mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

31. Ushbu Nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

32. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.